

JAMIYATIMIZNING IJTIMOYIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI

Gulyamov A.A.

Turkiston yangi innovatsilar universiteti o'qituvchisi

aligulyamov1997@mail.ru

Annotatsiya: Oila jamiyatning eng kichik bo'g'inidir. Bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri bu mamlakatimizni jahonning eng ilg'or davlatlaridan biriga aylantirish. Bu maqsad yo'lida biz eng avvalo jamiyatimiz va undagi insonlarni ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham ma'naviy-madaniy sohada yuksak darajaga olib chiqishimiz zarur. Bunga erishish uchun esa oila deb atalmish dargohning o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: jamiyat, oila, urf-odat, mafkuraviy tarbiya, iste'molchilar, mikroiqtisodiyot, o'zligini anglash, milliy g'urur, oilaparvarlik, oilaviy an'analar.

Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo'lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. V.G. Belinskiy shunday degan "Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarakatrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hech kimning ishi emas". Yana olim J.Santayana oilaga ta'rif bera turib, "Oila - tabiatning shoh asarlaridan biridir", deydi.

Jamiyat har tomonlama mukammal oilani vujudga keltiradi, uning turmush tarzi talablari asosida shakllanishi uchun barcha shart sharoitlarni yaratib beradi. Ma'naviy o'zligimizning yuksalishida, jamiyatimizda insoniy fazilatlarining keng qaror topishida, milliy tabiatimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan har qanday zararli ta'sirlar, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turishda azaliy qadriyatlarimizni asrab avaylashda oila mustahkam tayanch hisoblanadi.

Tug'ruqxonalar, bolalar bog'chalari, yaslilar, maktablar va boshqa bolalar muassasalarining keng shaxobchalarini barpo etish va rivojlantirish, ayollarga homiladorlik va tug'ish ta'tillari berish, ishlab chiqarishda ayollarning mehnatini muhofaza qilish, ko'p bolali va yolg'iz onalarga davlat nafaqalarini to'lash, shuningdek oilaga davlat va ijtimoiy yo'l bilan boshqa turdagi yordam ajratish orqali onalik va bolalik muhofaza qilinmoqda.

Oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy

mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshadi¹¹.

Oilaning davlat bilan munosabati o'ziga xosdir. Oilaning daromad keltiruvchi a'zolari davlatga soliq to'laydilar va shu hisobidan davlatning ijtimoiy xizmatlaridan (xavfsizlik, obodonchilik, bilim olish, davolanish) foydalanadilar. Iqtisodiyotning bir maromda rivojlanishi uchun resurslar, eng avvalo, ishchi kuchi zarur bo'lib, ularni oila yetkazib beradi. O'z navbatida yaratilgan mahsulot va xizmatlar sotilishi hamda iste'molga kelib tushishi kerak. Iste'molchilar esa oilada jamlangan, chunki kamdankam hollarda iste'molchi oiladan tashqarida yashovchi yakka kishilardan iborat bo'ladi. Oila mahsulotlarni xarid etmasa, ishlab chiqarish to'xtab qoladi, chunki ular sotilmaydi. Oilaning faoliyatiga firmalar ishi, davlat tuzumining barqarorligi ta'sir qiladi. Oilani mikroiqtisodiyotning bir ko'rinishi deb qaraladi. Mikroiqtisodiyot makroiqtisodiyotga (milliy iqtisodiyotga) bog'liq bo'ladi. Shu sababli oilaning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati katta va buni oilaning iqtisodiy vazifalarida ko'rish mumkin. Bu vazifalar shartli ravishda 3 qismga ajratiladi:

1. Mehnat resurslarini yetkazib berish.
2. Iste'mol etish va uy xo'jaligini yuritish.
3. Ishlab chiqarish.

Iqtisodiyotda "inson kapitali" degan tushuncha bor. Bu tushuncha insonning aqliy va jismoniy qobiliyati bo'lib, ishchi kuchi shakliga ega. Oilada bola tug'iladi, tarbiya topib voyaga yetadi va mehnat resurslariga kelib qo'shiladi. U ulg'aygach, moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratishda qatnashadi hamda jamiyatning iqtisodiy salohiyati va uning milliy boyligini oshirishga hissa qo'shadi. Oilada inson kapitalini shakllantirish farzandning tug'ilishidan boshlanadi. Farzand voyaga yetib oyoqqa turgunicha, oiladan anchagina moddiy va mehnat sarfini talab qiladi. Jamiyat rivojlangan sari bolalar tarbiyasi oila uchun serxarajat ishga aylanadi, shu sababli ota va ona bolalar sonining me'yorli bo'lishiga intiladi. Inson kapitalini shakllantirish bolalarni yedirib-ichirish va kiyintirish bilan cheklanmaydi, balki ularni mustaqil hayotga tayyorlash, iqtisodiy sharoitga moslashtirishni ham bildiradi. Oila zimmasiga ulg'aygan bolalarni amaliy ishga jalb etish ham yuklatiladiki, bu ularni oilaviy biznesga tortish, uy xo'jaligini yurgizishga jalb etish va yollanib ishlab pul topishni ham taqozo etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka bo'lgan qiziqish yildan yilga oshib bormoqda. Bunga sabab yangilanayotgan O'zbekistonda har bir tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlari yetarlicha himoya qilingan. Bu borada qilinayotgan hukumatimizning yuqori darajadagi qo'llab-quvvatlashlari

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, 2003 66-bet.

natijasida, yurtimizda yildan yilga oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni ham oshib bormoqda.

Statistika agentligining bergan ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 2023-yilning 1- fevral holatida 55 966 ta oilaviy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni esa quyidagicha:

- Samarqand viloyati – 9855 ta
- Farg'ona viloyati – 6069 ta
- Surxondaryo viloyati – 5486 ta
- Xorazm viloyati – 5355 ta
- Qashqadaryo viloyati – 4888 ta
- Toshkent viloyati – 4823 ta
- Navoiy viloyati – 3983 ta
- Toshkent shahri – 3561 ta
- Buxoro viloyati – 3384 ta
- Andijon viloyati – 2790 ta
- Qoraqalpog'iston respublikasi – 2136 ta
- Jizzax viloyati – 2013 ta
- Namangan viloyati – 1285 ta
- Sirdaryo viloyati – 338 ta²

Oilaviy an'analar insonga tushuncha, bilim, tajriba, mahorat va ma'naviy-axloqiy xulq-atvorni shakllantirishga sharoit yaratadi. Ota-onalarning bolalarga oilaviy an'analarning tarixi, ulug' ajdodlar tomonidan qo'llanib kelinish sabablarini, hozirgi hayotdagi amaliy ahamiyatini tushuntirish hamda oila hayotida qo'llashga o'rgatish, odatlantirish nihoyatda muhim. Ota-onalar tomonidan shunday tarbiyaviy ishlar o'quvchi-yoshlar bilan tashkil qilinganda bolalarda o'z millati, oilasi tarixi, madaniyati, ma'naviyati, o'zligini anglash, milliy g'urur va oilaparvarlik, vatanparvarlik kabi eng zarur insonparvarlik fazilatlarini shakllanadi.

Bola oilada oilaviy an'analarga amal qilishda oila hayotida zarur bo'ladigan axloq, mehnat, estetik tarbiyalarga doir muomala ko'nikmalari haqida ilmiy ma'lumotga ega bo'ladi. Ana shu ma'lumotga tayanib bola oila va ijtimoiy hayotda axloq, odob, mehnat ko'nikmalarini, insoniy xulq - atvorni shakllantirib, barkamollikka erishadi. Ana shu sifatlar bolalarni rivojlanganligini ko'rsatadi. Ana shu jarayonni oilada ota - onalarning bilishlari nihoyatda zarur. Aksincha ota - onalar bu jarayonni tushunib yetmasalar, o'quvchi - yoshlar tarbiyasi samaradorligi shunga yarasha bo'ladi. Shuning uchun avvalo ota - onalarning o'zlari oilaviy an'analarning rivojlantiruvchi, amaliy vazifalari haqida chuqur pedagogik ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Demak, insonning barkamolligida ta'lim - tarbiyaning natijasida uning umumiy

² www.statistika_rasmiy.uz.

rivojlanishi ta'minlanadi. Ana shu pedagogik jarayonni anglash oilada ota - onalarning eng muhim burchi vazifasi hisoblanadi. Oilaviy an'analarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: hashar an'anasi, mehmondo'stlik an'anasi, salomlashish va ko'rishish an'anasi, bemorlardan hol - ahvol so'rash va oila boshiga kulfat tushganda yordam berish an'anasi va boshqa an'analarning mavjud.

Masalan hashar an'anasi, hashar sharq xalqlarining xususan o'zbek xalqining eng azaliy insonparvarlik, jamoatchilik asosidagi mehnat an'alaridan bo'lib o'zbek xalqi hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Hashar bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadni amalga oshirishda birgalashib harakat qilishi oqibatida katta mehnat samarasiga erishishdir. Oilada hashar an'anasi mazmuni halqimizning "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", "Kuch birlikda", "Yolg'iz otning changi chiqsa ham dong'i chiqmas" kabi maqollarida o'z ifodasini topgan.

Yana bir oilaviy an'analardan biri bu mehmon kutish an'anasi. O'zbek oilalarining eng qadimgi insonparvarlik an'alaridan biri mehmondo'stlikdir. Qadimgi udum bir qarashda oddiy mehmon keldi, kutildi, kuzatildi singari soddalashtirilgan, holda kishi ko'z oldida namoyon bo'ladi. Xalqimiz bu borada tarbiyaviy ahamiyatga molik naql yaratgan: "Maktab o'qib mulla bo'lasan, mehmon kutib (mehmon bo'lib) odamgarchilikni o'rganasan". Haqiqatan ham, bu naqlda juda katta purma'no yashiringan. Odatda har bir xonadonda alohida did bilan bezatilgan mehmonxonasi bo'lgan va hozir shu tarzda davom etayapti. Ilgari har bir hovlida mehmonlar uchun alohida darvozadan to'g'ri kiriladigan mehmonxonaning mavjudligi xalqimizda mehmondo'stlik an'anasining qadimiyligidan darak beradi. Buni XI asrda yashagan sharqning allomasi Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asaridagi: "Agar sen odamlarni taklif qilayin desang, taklif qilgin va lekin taraddudlarni yaxshi ko'rib qo'y. Idish - tovoq, dasturxon, uy-joy, libos pokiza bo'lsin, pokiza ko'rpacha yoygin, ovqat va ichimliklar ham yaxshi bo'lishi kerak. Ovqat ichimliklar pokiza, totli, yaxshi bo'lsin, qo'l uzatgan havas bilan esin. Taklif qilmasang, osh-suvning kamchiliklari bitta bo'ladi, taklif qilsang, uni ko'rgan birni ming qiladi. O'yla sen yeb ichiladigan narsalarni yaxshi, pokiza qilgin, kelgan yaxshilar to'yib turib ketsinlar. Do'stlarni, qarindoshlarni, ular xoh uzoq, xoh yaqin bo'lsinlar, barchasini ziyofatga taklif qil, haqlariga rioya qilgin. Keladigan keladi, agar kelmasa, uning ko'ngli taklif qilinganligi uchun qolmaydi"³, - deb bildirgan qimmatli fikrlari ham isbotlaydi.

O'zbek xalqining eng qadimgi an'alaridan biri bemorlardan hol-ahvol so'rash va oila boshiga kulfat tushganda yordam berish an'anasidir. Oilada uzoq vaqt betob bo'lib qolgan kishilarni, yoshi ulug' yoki yosh bo'lishidan qat'iy nazar hol-ahvol so'rash avloddan avlodga o'tib kelayotgan insonparvarlik an'alaridan biridir. Mazkur an'ana mazmuni axloq - odobga oid hadis namunalari quyidagicha

³ Юсуф Хос Ҳожиб. "Қутадғу билиг". –Тошкент, "Юлдузча", Б:122.

asoslangan. “Mo‘minlarning bir - birlariga oltita haqlari bor: salom berish, chaqirsa borish, maslahat so‘rasa, berish, aksirsa, javob aytish, kasal bo‘lsa, borib ko‘rish, betobligingda seni ko‘rgani kelmagan odamni sen borib ko‘raver. Senga xayru ehson qilmagan odamga sen xayru ehson qilaver; bemorni ko‘rgani borganda uning peshonasiga qo‘lni qo‘yib hol - ahvol so‘rash barkamol ziyorat hisoblanadi. Qo‘l berib salomlashish mukammal bo‘ladi”⁴ va hakazo. Haqiqatan ham hadislarning har biri hayotda yashayotgan kishilar oldiga muayyan insoniylik ma‘suliyatlarini yuklaydi. Bu mas‘uliyatlarsiz har qanday odam etuk, barkamol bo‘la olmaydi. Shuning uchun bolalarni xalqning mazkur an‘anasi ruhida tarbiyalash nihoyatda dolzarb masaladir.

Bularning hammasi o‘quvchida kelajakda hayotda shunday holatga tushganda amal qilishi zarur bo‘lgan tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga amaliy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, 2003
2. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. –Тошкент, “Юлдузча”
3. “Ахлоқ-одобга оид hadis namunalari”. Т., “Fan”, 1999 у.
4. www.statistika_rasmiy.uz

⁴ “Ахлоқ-одобга оид hadis namunalari”. Т., “Fan”, 1999 у, В:158.